



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 327 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акромовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlarini	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlilo'imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	240
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi muammolar va ularga innovatsion yondashuv	244
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi	
O'zbekiston xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos jihatlari	247
O'razboyeva Farangiz Quadrat qizi, Ametov Quvandik Mamatjanovich	
The role of profitability in evaluating enterprise performance	251
Kholiqulov A.N., Khlomurodova S.A.	



Yaponiyada demografik muammo va uning iqtisodiyotga ta'siri.....	256
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribalari.....	262
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna, Otamuratova Dilnoza Dilmurod qizi	
Sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarining tahlili.....	265
Islomov Shuhrat Marufjonovich, Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich	
Talabalarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda Pareto qoidasini tadbqiq etishning muhim hususiyatlari	272
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, Asqarov Abrorjon Xayitmirzayevich	
Sanoat siyosatining nazariy va empirik asoslari	277
Sobirxo'jayev Xadyatillo, Hashimov P.Z.	
Yashil iqtisodiyot sharoitida energiya samaradorligining milliy iqtisodiyotga ta'siri.....	284
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Yashil biznes: Muqarrar kelajak va yangi imkoniyatlar.....	290
Shirinxon Axmadova, Xaydarov Nomozali Xolmirzayevich	
Katta ma'lumotlar tahlili va ularni biznes qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish.....	296
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Startaplar uchun marketing strategiyalari: Bozor tahlilidan brendgacha	301
Qodirov Sardor Qosimjonovich	
O'zbekiston sharoitida zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarishda yashil iqtisodiyotning o'rni	305
Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiyeovich	
Suv resurslari ustidan nazorat va mintaqaviy siyosat: O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqlim ziddiyatlari	311
Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li, Egamberdiyev Muzaffar	
Структура фирм и организация управления логистикой	315
Исломжон Жамshedович Жамshedов, Фарход Махмудович Тиркашев	
Tijorat banklarda zamonaviy ekotizim xizmatlarini takomillashtirish.....	320
Abduvaliyev Mirjalol Ikrom o'g'li, Po'latov Laziz Akmal o'g'li, Axmedov A.S	



TIJORAT BANKLARDA ZAMONAVIY EKOTIZIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduvaliyev Mirjalol Ikrom o'g'li

Toshkent Bank-moliya akademiyasi, TBB 24-01 guruh talabasi

Email: mirjizzax343717@gmail.com

Po'latov Laziz Akmal o'g'li

Toshkent Bank-moliya akademiyasi,

Davlat moliyasi va xalqaro moliya 24-11 guruh talabasi

Email: lazizbekpulatovreal@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Axmedov A.S

TDIU "Bank ishi" kafedra dotsenti, PhD

Annotatsiya: Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan tijorat banklarida zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank sohasida tubdan o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Tijorat banklari an'anaviy operatsiyalardan tashqari, mijozlarga yaxlit, qulay va shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatadigan raqamli ekotizimlarni shakllantirishga intilmoqda. Tijorat banklarida zamonaviy xizmatlar ekotizimini joriy etish jarayonida olib borilayotgan amaliy ishlar kengaytirilmoqda.

Mazkur maqolada ekotizimlarning asosiy tarkibiy qismlari, ularni yo'lga qo'yishdagi asosiy bosqichlar, duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, buning bank faoliyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Olib borilgan ilmiy ish natijasida, muvaffaqiyatli ekotizimni qurish uchun strategik rejalashtirish, texnologik infratuzilma modernizatsiyasi, ma'lumotlarni boshqarish va madaniy o'zgarishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, raqamli texnologiyalar, kredit, moliyaviy ekotizim, g'aznachilik, to'lov, sun'iy intellekt, mijoz, Big Data, tranzaksion, raqamli transformatsiya.

Abstract: Nowadays, the rapid development of modern technologies in commercial banks is bringing about fundamental changes in the banking sector. In addition to traditional operations, commercial banks are striving to build digital ecosystems that provide customers with integrated, convenient, and personalized services. The practical efforts being carried out in the process of introducing modern service ecosystems in commercial banks are being expanded.

This article examines the main components of ecosystems, the key stages of their implementation, the challenges encountered and ways to overcome them, as well as their impact on banking activities. As a result of the conducted research, theoretical information is presented indicating that successful ecosystem building requires strategic planning, modernization of technological infrastructures, credit, financial ecosystem, treasury, payment, artificial intelligence, customer, Big Data, transactional, digital transformation.

Аннотация: В настоящее время стремительное развитие современных технологий в коммерческих банках вызывает фундаментальные изменения в банковском секторе. Помимо традиционных операций, коммерческие банки стремятся формировать цифровые экосистемы, обеспечивающие клиентам комплексные, удобные и персонализированные услуги. В процессе внедрения современных экосистем услуг в коммерческих банках проводимые практические работы расширяются.

В данной статье рассматриваются основные компоненты экосистем, ключевые этапы их внедрения, возникающие проблемы и пути их устранения, а также влияние этого процесса на банковскую деятельность. В результате проведённого исследования представлены теоретические сведения о том, что успешное построение экосистемы требует стратегического планирования, модернизации технологической инфраструктуры, управления данными и реализации культурных изменений.

Ключевые слова: коммерческие банки, цифровые технологии, кредит, финансовая экосистема, казначейство, платёж, искусственный интеллект, клиент, Big Data, транзакционный, цифровая трансформация.



KIRISH

Bugungi kunda tijorat banklari va uning filiallari ko'paygani sari ushbu sohadagi raqobat ham tobora kuchayib bormoqda. Tijorat xizmatlaridan foydalanadigan iste'molchi bankdan uning turli ehtiyojlarini qondiradigan, vaqt va joy chekloviz, shaffof va xavfsiz platformani kutadi. Shu talabni qondirish maqsadida dunyo banklari o'zlarining raqamli ekotizimlarini soddalashtirilgan variantda yaratmoqda. Tijorat banklarda joriy qilinayotgan yangi zamonaviy ekotizim bank xizmatlarini turli hamkorlar bilan integratsiya qilgan holda, mijoz uchun yagona kirish nuqtasi (super-ilova)ni yaratmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizdagi barcha banklar zamonaviy ekotizim bo'yicha faol islohotlar olib bormoqda. Markaziy bankning raqamlashtirish dasturlari va texnologik yutuqlarga qiziqishning o'sishi tijorat banklarini o'zlarining raqamli strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga undamoqda. Tijorat banklar zamonaviy ekotizimni yo'lga qo'yishni murakkab, ko'p qirrali jarayon sifatida ko'rib, me'yoriy va madaniy o'zgarishlar ustida ish olib bormoqda. Tijorat banklari xizmatidan foydalanuvchi iste'molchilar uchun va ularning turmush tarzini yanada yaxshilash maqsadida bir qancha bank xizmatlari ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tijorat bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan xizmatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi [1] PF-5992-sonli Farmonida ko'rsatib o'tilgan. Unda O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

• banklarning regulyator va davlat organlari bilan axborot almashinuvini takomillashtirish, hamda hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish orqali ularni taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan yuklarni kamaytirish;

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish;
- avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish;
- bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sohasidagi yangi kontseptsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank) kabi vazifalarning belgilanganligi mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

"Tijorat banklarda zamonaviy ekotizim xizmatlarini takomillashtirish" mavzusini ilmiy izlanishda va maqola mavzusini kengroq tushuntirishda zarur bo'lgan adabiyotlardan foydalanib mavzu yoritiladi. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank sohasini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy inkluzivlikni rivojlantirish bo'yicha chiqargan farmoyish, qaror va ko'rsatmalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2030-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi [2] Farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ushbu yo'nalishda muhim huquqiy asos hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'rganilayotgan mavzu dolzarb bo'lib, tijorat banklari faoliyatini yaxshilashdagi asosiy nazariy adabiyotlar qatoriga J. Bessining Risk Management in Banking (John Wiley & Sons, 2015, 712 b.), A. Saunders va M.M. Cornettning Financial Markets and Institutions (McGraw-Hill Education, 2018, 768 b.), G.G. Parker, M.W. Van Alstyne va S.P. Choudaryning Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy (W. W. Norton & Company, 2016, 336 b.) asarlari kiradi.

Xorijiy tajribada bank xizmatlarini yaxshilash bo'yicha ilmiy jurnallar tahlili ham o'rganildi. Tijorat banklarida xorijiy tajribani o'rganishda mavjud tizim bilan solishtirish orqali mijozlarga qulaylik yaratishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Mahalliy manbalar qatorida "Iqtisodiyot va inson" jurnali hamda "Moliya va kredit" jurnali kabi nashrlarda bank sohasidagi innovatsiyalar va raqamlashtirish masalalari yoritilgan.

Masalan, Karimov N.R. va Ismoilov B.X. (2022) "Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining ekotizim modelini joriy etishning nazariy asoslari" mavzusida Moliya, bank ishi va sug'urta ilmiy-elektron jurnalida (№ 3, 45-52-betlar) maqola chop etgan. Xodjayeva D.T. (2021) "Bank ekotizimida FinTech kompaniyalarining o'rni va ahamiyati" nomli maqolasini Innovatsion rivojlanish ilmiy-amaliy jurnalida (№ 4, 78-84-betlar) e'lon



qilgan. Rustamov Sh.Sh. va Usmonov A.A. (2020) "O'zbekiston banklarida raqamli transformatsiyani amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari"ni TDIU Ilmiy xabarlar to'plamida (№ 7, 56-63-betlar) yoritgan. Bundan tashqari, "Iqtisodiy xavfsizlik" ilmiy jurnalida (№ 2, 75-81-betlar) ham muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizning deyarli barcha tijorat banklari ko'plab moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etadigan raqamli bank standartlarini joriy qilishga intilmoqdalar. Tijorat banklari moliyaviy texnologiyalarga investitsiya kiritib, moliyaviy xizmatlarning innovatsion loyihalarini faol ravishda amalga oshirmoqdalar. To'laonli raqamli transformatsiya, ya'ni tijorat banklardagi xizmatlar ekotizimini takomillashtirish maqsadida keng ko'lamli xizmatlarni taqdim etishlari mumkin. Tijorat banklarda raqamli platformalarni yaratish allaqachon yirik banklar bazasida amalga oshirilmoqda.

Muvaffaqiyatli ekotizim yaratishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan birga, xodimlarning bilim darajasi, ish tartibi hamda doimiy innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilayotgan amaliyot shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari yopiq ekotizim o'rniga ochiq va inklyuziv platforma yaratish uzoq muddatda ko'proq foyda keltiradi. Tadqiqotlar ekotizimning moliyaviy samaradorligi (ROI) va mijozlar sadoqatiga ta'sirini aniqroq o'lchashga qaratilishi kerak. O'zbekiston kontekstida regulyatorlar (Markaziy bank) tomonidan belgilangan talablar bu borada muhim ahamiyatga ega.

Respublikamiz tijorat banklarida zamonaviy ekotizim xizmatini yo'lga qo'yishda olib borilgan ishlar amaliyotda o'z yutuqlarini ko'rsatmoqda. Zamonaviy ekotizim xizmati biznes-modeliga o'tish, "Super App" konsepsiyasini ishlab chiqish va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish mexanizmlarini joriy etish orqali tijorat banklari o'z mavqeini yuksaltirmoqda. Zamonaviy ekotizim xizmati tijorat banklari uchun keng yo'lga qo'yilgan strategik manba hisoblanadi. Markaziy bank hamda bir qator yetakchi tijorat banklar bilan 2019–2023-yillarga mo'ljallangan ma'lumotlar yig'ildi. Respublikamizdagi tijorat banklarning 2019–2023-yillardagi hamkorligi asosan xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilish, texnologik modernizatsiya va strategik investorlarni topishga qaratilgan edi [3]. Bu hamkorliklar mamlakat iqtisodiyotini rag'batlantirish va moliya sektorini tubdan isloh qilishda asosiy qism hisoblanadi.


Moliyaviy ekotizimni yaratish moliya-kredit tashkilotlarining raqobatbardoshligini, mijozlar sonini ko'paytirishni va sifatli xizmat ko'rsatishni muhim bosqichga aylantirmoqda. Shu bilan birga, bunday ekotizimlarni joriy etish faqatgina foydalanuvchilarni onlayn va oflayn rejimda to'plash va qayta ishlash bilan emas, balki mavjud bo'lgan har qanday kanallar orqali samarali aloqalarni o'rnatishni ham ta'minlaydi. Tijorat banklarida masofaviy xizmat turlari kengayib bormoqda.

2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda bank tizimida raqobat muhitini yaxshilash maqsadida xorijiy investorlar va bazaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi 409 ta yangi bank xizmatlari ofislari tashkil etilib, ularning umumiy soni 866 taga yetdi. Banklar tomonidan 691 ta 24/7 rejimida ishlovchi o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etilib, ularning soni 1452 taga yetkazildi. Tezkor to'lovlar tizimi orqali jami 128,3 trln so'mlik qariyb 5,4 mln tranzaksiyalar, jumladan, g'aznachilikka 232 mingdan ortiq 2 trln so'mlik to'lovlar o'tkazildi. To'lov infratuzilmasini yanada kengaytirish maqsadida, 2021-yil 1-mart holatiga ko'ra bankomat va infokiosklarning umumiy soni 12 289 donaga, terminallarning umumiy soni esa 440,3 ming donaga yetkazildi [4].

Jahon moliya bozoridagi muhit hamda respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tijorat banklarida mijozlar uchun raqobat jarayonining yanada kuchayishiga olib kelmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, tijorat banklarida raqamli ekotizimning rivojlanishi bank xizmatlarning axborot dasturlarining so'nggi yillardagi asosiy tendensiyalardan biriga aylandi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar moliyaviy sektorni tubdan o'zgartirdi. Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi tijorat banklari faoliyatida katta o'zgarishlarga olib keldi va mijozlarga ko'plab qulayliklar yaratdi. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalarini bir shartli ravishda to'rtta turda tasniflash mumkin. Bular ma'lumotlarni qayta ishlash, vizual texnologiyalar, kommunikatsion, elektron texnologiyalardan tashkil topadi




1-rasm. Tijorat banklarida zamonaviy ekotizim tasnifi [5]



Banklar transformatsiyasi orqali aholi uchun, shu jumladan jismoniy va yuridik shaxslar uchun taqdim etiladigan moliyaviy mahsulotlar foydalanishga juda sodda va qulay shaklga kelishi kerak. Zamonaviy ekotizimi xizmatlari - mijoz qiymat zanjirini yaratish uchun bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan ishtirokchilardir. Zamonaviy xizmatlari eko tizimi yagona raqamli platformada turli xil mahsulotlar, xizmatlar va xizmatlarning keng assortimentini, mijozlar bilan moslashuvchan imkoniyatlarini ta'minlaydigan yagona raqamli platformani, bir nechta mahsulot, xizmatlardan bir vaqtning o'zida foydalanishni qamrab qoladi. Respublikamizdagi tijorat banklari raqamli ekotizimlarni rivojlantirishda zarur infratuzilmasini tuzishda mijozlarning keng ko'lamli bazasiga ega, maksimal foyda olish uchun zamonaviy biznes chorlovlariga moslashishga tayyor, mijozlar (daromad darajasi, oilaviy ahvoli) to'g'risida ma'lumotga ega. Ko'chmas mulk mavjudligi, xarajatlar moddalari taniqli brendga va mijozlarga yuqori darajada sodiqlikka ega. O'zaro munosabatlar marketingi va mijozlarining ehtiyojlarini anglash asosida tijorat banklari o'zlarining ekotizimlarini yaratadilar. Banklar, mijozlarning turli segmentlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida, standart moliyaviy xizmatlar doirasidan tashqariga chiqib, ekotizim yo'nalishlarini ishlab chiqmoqdalar.

Jahonning yetakchi mamlakatlariga xos bo'lgan global ekotizimlarning rivojlanish tendensiyasi Respublika tijorat banklarining keyingi rivojlanish bosqichiga mos keladi.

Mijozlarning turli segmentlari to'g'risidagi tijorat banklardagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida, moliyaviy xizmatlar doirasida chiqib, ekotizim yo'nalishlarini ishlab chiqmoqdalar. Bankning ekotizim modelining ko'rinishini ishlab chiqmoqda.



2-rasm. 2025-yilga mo'ljallangan zamonaviy ekotizim modeli.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank sohasida ham tub o'zgarishlarni talab etmoqda. Raqamli bankingni rivojlantirish orqali bank xizmatlarining tezkorligi, qulayligi va samaradorligini oshirish mumkin. Buning uchun mobil banking, onlayn xizmatlar, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellektni keng joriy etish zarur. 2026-yilga qadar mamlakatimizda raqamli bankingni yanada rivojlantirish va zamonaviy bank texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, 2023-yilda mobil banking tizimidan foydalanuvchilar sonini 15 million kishiga, 2024-yilda esa 18 million kishiga yetkazish rejalashtirilgan.

Innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish ham dolzarb masalalardan biridir. Tijorat banklari mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va talablarini qondirish uchun doimiy ravishda yangi va innovatsion bank mahsulotlari hamda xizmatlarini ishlab chiqishi zarur. Bugungi kunda masofaviy bank xizmatlari, QR-kod to'lovlari, NFC texnologiyalari, virtual va qo'shimcha reallik kabi innovatsion yechimlar tobora ommalashib bormoqda. 2021-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda 100 dan ortiq turdagi innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlari joriy etilgan. Ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish va innovatsion bank xizmatlarini keng miqyosda tatbiq etish banklarning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank innovatsiyalarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston banklari fintech sohasidagi yetakchi kompaniyalar, nufuzli moliya institutlari va innovatsion markazlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirishi, qo'shma loyihalarni amalga oshirishi va xalqaro maydonlarda faol ishtirok etishi lozim. 2022-yilda O'zbekistonning yetakchi banklari tomonidan 30 dan ortiq xalqaro hamkorlik shartnomasi va memorandumlari imzolangan. Bunday xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va kengaytirish innovatsiyalar sohasida bilim va tajriba almashish imkonini beradi.

O'zbekiston tijorat banklarining innovatsion faoliyatini boshqarishni takomillashtirish raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, bank xodimlarining kompetensiyalarini rivojlantirish, ochiq banking ekotizimini shakllantirish, moliyaviy inkluzivlikni oshirish, yangi moliyalashtirish mexanizmlarini tatbiq etish va qulay huquqiy muhitni yaratish kabi kompleks chora-tadbirlarni



amalga oshirishni taqozo etadi. Ushbu yo'nalishlardagi izchil islohotlar va tizimli yondashuv bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanishini ta'minlash va mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining innovatsion faoliyatini boshqarishni takomillashtirish borasidagi tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank tizimida innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirishning strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari oldida innovatsion yechimlarni keng miqyosda qo'llash, raqamli texnologiyalarni faol o'zlashtirish va yangi biznes modellarini joriy etish borasida muhim vazifalar turibdi. Jahonning yetakchi mamlakatlariga xos bo'lgan global ekotizimlarning rivojlanish tendensiyasi respublika tijorat banklarining keyingi rivojlanish bosqichiga mos keladi. An'anaviy biznes modellari rivojlanib, tijorat bankining maqsadli auditoriyasi bilan raqamli ekotizimga aylanadi, chunki bu moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasa va uning iste'molchilarining farovonligini ko'paytiradigan o'zaro manfaatli hamkorlik bo'ladi hamda tijorat banklarining bozor barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari tizimini raqamlashtirishda faol ishtirok etmoqda: tezkor to'lovlar tizimi yaratildi, bu to'lovlarni real vaqtda tunu-kun, shu jumladan banklar o'rtasidagi dam olish va ta'til kunlari, milliy to'lov tizimi orqali amalga oshirishga imkon berdi. "Uzcard" va "Humo" milliy to'lov vositalarini qabul qilish uchun infratuzilma yaratildi. Zamonaviy bank tizimida tijorat banklar mijozlar bilan ishlashda yangi texnologik yechimlardan -mobil ilovalar, chatlar va robo-edvayzerlardan foydalanadigan neobanklar bilan raqobatlashadi. Tijorat banklar riskini kamaytirish uchun bank mijozlarini identifikatsiyalash va autentifikatsiya qilishning yagona tizimini yaratish rejalashtirilgan bo'lib, keyinchalik biometrik parametrlar bilan to'ldiriladi. Tijorat banklari moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish va sotishda vositachilarni kamaytirish masofadan ishlaydigan texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan moliyaviy texnologiyalar qo'llanila boshlandi.

Raqamli texnologiyalar asoslangan yangi sharoitlarda banklar uchun asosiy masala mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni chuqurlashtirish hisoblanadi. Avvalo, mijoz va bank o'rtasida ishonch o'rnatilishi kerak, shunda mijoz bankda qolish orqali barcha xizmatlar bo'yicha takliflar paketini oladi va tabiiyki, shunda mijoz boshqa banklarni qidirish uchun vaqtni sarflamasligi mumkin.

Iqtisodiyotning asosi hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar bank xodimlari tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, to'lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shunday zamonaviy texnologiyalar asosida masofaviy bank xizmatlari, xususan Internetbanking xizmatining faol joriy etilishi eng muhim masala ekanligi shubhasiz. Mamlakatning qay darajada iqtisodiy va texnologik taraqqiy topganligi masofaviy bank xizmat turlarini amaliyotga joriy qilishda muhim hisoblanadi. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarini masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya.

Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi bank xizmatlari tizimida yangi hajmdagi va yangi shakldagi turli xizmatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

1-jadval. 2019-2020-yilgi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar ma'lumoti [7]

No	Ko'rsatkich	2019-yil	2020-yil	O'zgarish (%)
1	Aktivlar hajmi (trln so'm)	857.4	1,032.6	+20.4%
2	Kredit portfeli (trln so'm)	542.8	648.3	+19.4%
3	Mablag'lar bazasi (trln so'm)	692.5	834.7	+20.5%
4	Sof foyda (trln so'm)	22.7	18.9	-16.7%
5	ROA (Aktivlar rentabelligi, %)	2.65%	1.83%	-0.82%
6	ROE (Kapital rentabelligi, %)	24.1%	18.9%	-5.2%
7	NPL (Buzilgan kreditlar ulushi, %)	2.9%	4.1%	+1.2%
8	KRK (Kapital etarililigining normasi, %)	13.8%	14.1%	+0.3%
9	Likvidlik ko'rsatkichi (%)	78%	82%	+4%



2-jadval. 2025-yilga qadar asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar ma'lumoti

№	Ko'rsatkich	2023-yil (haqiqiy)	2024-yil (prognoz)	2025-yil (prognoz)	O'zgarish (%)
1	Aktivlar hajmi (trln so'm)	1,450	1,680	1,950	+34.5%
2	Kredit portfeli (trln so'm)	980	1,150	1,380	+40.8%
3	Mablag'lar bazasi (trln so'm)	1,210	1,420	1,670	+38.0%
4	Sof foyda (trln so'm)	38.5	45.2	53.8	+39.7%
5	ROA (Aktivlar rentabelligi, %)	2.65%	2.69%	2.76%	+0.11%
6	ROE (Kapital rentabelligi, %)	24.8%	25.3%	26.1%	+1.3%
7	NPL (Buzilgan kreditlar ulushi, %)	3.8%	3.5%	3.2%	-0.6%
8	KRK (Kapital etarilligining normasi, %)	14.2%	14.5%	14.8%	+0.6%
9	Likvidlik ko'rsatkichi (%)	85%	87%	90%	+5%

Tijorat banklarda 2019-yildan 2025-yilgacha moliyaviy ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'sdi. Bunga misol tariqasida, aktivlar hajmi 2019-yilda 857,4 trillion bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 1 950 trillionni tashkil etib, 55 % ga yuqoriladi.

Masofadan xizmat ko'rsatish tizimini mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

informatsion;
tranzaksion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kundagi tijorat banklaridagi innovatsiyalangan xizmat turlari — bu onlayn xizmatlar, biometrik identifikatsiyalash va robotlashtirishdir. So'nggi bir necha yil ichida respublikamiz bank tizimida sezilarli texnologik o'zgarishlar yuz berdi. Tijorat banklari tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar ham, bank mijozlarining onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ham o'tgan yillarga nisbatan takomillashdi. Bu jarayon mijozlarga hech qanday noqulaylik keltirmaydi. Aholi tijorat bank xizmatlaridan o'z ehtiyojlari uchun oqilona foydalanmoqda hamda mijozlarga berilgan yengilliklar vaqtini tejash va noqulayliklarning oldini olish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-sonli Qarori.
4. https://cbu.uz/oz/press_center/news/436810/?sphrase_id=48893
5. Dyachenko O. (2018). Finansovaya ekosistema: vse v odnom. Natsionalniy bankovskiy zhurnal (NBJ), № 5.
6. Polyakov I. Bankovskaya ekosistema – modniy trend ili strategicheskaya neobxodimost? URL: <https://www.vedomosti.ru/finance/blogs/2019/06/27/804788-bankovskaya-ekosistema>
7. Ivanov A. Ekosistema naoborot [Elektron resurs]. // vc.ru. – Rejim dostupa: <https://vc.ru/finance/97873-ekosistemanao-borot>
8. Mamadiyarov Z.T. Raqamli iqtisodiyotda masofaviy bank xizmatlarining evolyusion rivojlanishi: mulohazalar va tahlillar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, № 3, may–iyun, 2020.
9. Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat banklari xizmatlarining o'rni. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, № 6, noyabr–dekabr, 2019.
10. Bastar A., Eliyana F., Syabarrudin A., Emur A. Digitalization in banking sector: the role of intrinsic motivation. Heliyon, Volume 6, Issue 12, December 2020, e05801. <https://www.cell.com/heliyon/home>
11. https://cbu.uz/oz/press_center/reports/480144/
12. https://cbu.uz/oz/press_center/presentations/477016/
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.



14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-sonli "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
15. Academic Journal of Digital Economics and Stability, ISSN 2697-2212. Features of Development of Digital Economy in Uzbekistan (2021).
16. <https://kun.uz/uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-xususiyatlari>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
